
INSON MANFAATLARI – OLIY QADRIYAT

Davlatimiz rahbari tomonidan inson manfaatlarini ta'minlash uchun avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerakligiga alohida urg'u berilmoqda.



Yurtimizda xalq bilan faol va ochiq muloqot olib borish ularning farovon, baxtli hayot kechirishi uchun munosib shart-sharoit yaratishdan iborat. Aynan shu maqsadda bugun tuman hokimi Sh.Turdaliyev boshchiligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oltiariq tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri, tuman sektor rahbarlari va tashkilot rahbarlari ishtirokida 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi hovlisida navbatdagi sayyor qabul o'tkazildi.

Bu galgi qabulda fuqarolar tomonidan asosan uy-joy bilan ta'minlash, aliment pulini undirish, sog'liqni saqlash, bandlikni ta'minlash sohalari bo'yicha muammolar bildirildi.

Sayyor qabulda 40 nafardan ortiq fuqarolarning murojaat va masalalari ijrosiga tegishligi bo'yicha mas'ullar biriktirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-09 20:34:06